

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHAMAXMUDOVA AZIZA FURKATOVNA

**NUTQIY AKTLAR KONTEKSTIDA HURMAT TAMOYILLARINI
VOQELANTIRUVCHI SOTSIOPRAGMATIK OMILLAR
(ISPAN TILI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)

Content of the dissertation abstract of doctor of Science (DSc)

Shamaxmudova Aziza Furkatovna

Nutqiy aktlar kontekstida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi sotsiopragmatik omillar (ispan tili misolida) 3

Шамахмудова Азиза Фуркатовна

Социопрагматические факторы, влияющие на реализацию принципов вежливости в контексте речевых актов (на материале испанского языка).... 33

Shamahmudova Aziza Furkatovna

Sociopragmatic factors influencing the implementation of the principles of politeness in the context of speech acts (on the Spanish material) 65

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 70

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHAMAXMUDOVA AZIZA FURKATOVNA

**NUTQIY AKTLAR KONTEKSTIDA HURMAT TAMOYILLARINI
VOQELANTIRUVCHI SOTSIOPRAGMATIK OMILLAR
(ISPAN TILI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.1.DSc/Fil293 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasining (www.uzmu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Safarov Shaxriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdimurod Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna
filologiya fanlari doktori, professor

Virna Velazkes Vilchis
filologiya fanlari doktori, professor (Meksika)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko‘chasi, 400-uy. Tel.: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 246-65-21; e-mail: nauka@nuu.uz. O‘zbekiston Milliy universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-qavat 117-auditoriya.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko‘chasi, 400-uy. Tel: (99871) 246-08-62; (99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «__» _____ dagi ____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

A.G.Sheremetyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol. f.d., professor

N.E.Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, filol.fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, filol. f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligining muhim vazifalaridan biri nutqiy muloqotda hurmat tamoyillari faollashuvi bilan bog'liq murakkab masalalarning yechimiga yo'naltirilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishdir. Xususan, ispan muloqot matnlarini shu nuqtai nazardan o'rganish ham ana shunday dolzarb masalalardan biri sanaladi. Hurmat tamoyillarining kommunikativ stilistika imkoniyatlari kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, pragmatolingvistika, stilistika singari yo'nalishlarning asosiy tadqiq obyektiga aylandi. Ayniqsa, matn turlarining muloqot jarayonida o'zaro munosabati asosida shakllanadigan axborot mazmunining pragmatik jihatlarini o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishdagi izlanishlar tillararo va madaniyatlararo muloqot doirasida insonlar o'rtasida kechadigan munosabatlarning ontologik mohiyati va sotsiopragsmatik mexanizmini aniqlash imkonini beradi.

Dunyo tilshunosligida hozirgi paytda turli lisoniy madaniyatlar vakillarining nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Qator yetakchi ilmiy markazlarda diskurs tizimining ontologik va illokutiv mazmuni xususiyatlarini lisoniy-nutqiy, madaniy va milliy mentalitet nuqtai nazaridan tadqiq etish muammosi eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xalqaro munosabatlarning shakllanishi, ko'p tilli anjumanlarning o'tkazilishini qamrab oladigan globallashuv jarayoni bilan bog'liq madaniyatlararo muloqotda faollashadigan xushmuomala shakllarning diskursiv voqelanishiga ta'sir ko'rsatadigan etnosotsiopragsmatolingvistik omillarni o'rganish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilayotgan keng miqyosdagi islohotlar madaniyatlararo muloqot vositasi rivoji bo'lgan til ta'limi va tadqiqi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayni damda o'zbek milliy tilshunoslik fanida til va nutq tizimlarini zamonaviy tamoyillar tatbiqida tadqiq etish, jahon fanida amalda bo'lgan ilg'or g'oyalarni ijodiy o'zlashtirish tajribasi shakllandi. Mamlakatimizda chet tillar ta'limi bo'yicha xalqaro dasturlarning joriy qilinishi pragmatolingvistika sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga turtki beradi. «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonda «xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish»¹ masalasining kun tartibiga qo'yilganligi ham zamonaviy tilshunoslik sohasini innovatsion tamoyil hamda mezonlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8-oktabrdagi

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'z, 09.10.2019. № 209 (7439).

PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqei tubda oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10-dekabrda PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017 yil 20-aprelda PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Hurmat tamoyillarini muloqot matnida voqelantiruvchi lisoniy vositalar hamda sotsiopragmatik omillarning xushmuomala ifodalanishdagi ahamiyati masalasiga oid ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markaz va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Alicante (Ispaniya), Universidad de Granada (Ispaniya), Universidad de Barcelona (Ispaniya), Universidad de Antioquia Colombia (Kolumbiya), University of Warwick (Buyuk Britaniya), University of Illinois (AQSh), Uniwersytet Śląski (Polsha), Moskva davlat tilshunoslik universiteti, Moskva davlat universiteti, RFA tilshunoslik instituti (Rossiya), shuningdek, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti (O‘zbekiston)da ushbu masalalar mohiyatini o‘rganish borasida tadqiqotlar yaratilgan.

Jahon tilshunosligida hurmat tamoyillarining lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlari bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: muloqotni rejalashtirishda til sohiblari shaxsiyati omili tabiatini o‘rganish (Cambridge University), muayyan xalq madaniyatida faollashadigan xushmuomala shakllarining kognitiv, lingvokulturologik, psixolingvistik va neyrolingvistik xususiyatlarini belgilash (Universidad de

² Ma’lumotlar universitetlar veb-saytlaridan olingan: <https://www.ca.ac.uk/>, <https://ua.es/>, <https://www.ugr.es/>, <https://www.ub.edu/web/portal/es/>, <https://www.uniroja.es/>, <https://warwick.ac.uk/>, <https://aku.edu.tr/anasayfa/eng/index.htm>, <https://www.ku.dk/english/>, <https://linguanet.ru/en/>, <https://uzbek.org.uk/usuwl/> <https://www.navoiy-uni.uz/en/site/index>.

Alicante), muloqot samaradorligiga erishishda hurmat tamoyillarining o'rnini (Universidad de Granada), lisoniy qobiliyatning kognitiv-semantik xususiyatiga doir qonuniyatlarini ochish (Universidad de Barcelona), ispan tilining nutqiy aktlar tizimini boshqa qardosh va qardosh bo'lmagan tillar tizimi bilan chog'ishtirib o'rganish, (Universidad de Antioquia Colombia); chet tili o'qitish metodikasini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirishda xushmuomala shakllarning milliy-madaniy xususiyatlari muammosini hal qilish (University of Warwick), nutqiy muloqotda inson faktori tutgan o'rnini belgilash (University of Warwick), antroposentrizm nuqtai nazaridan diskurs va shaxsning bog'liqligini o'rganish (RFA Tilshunoslik instituti), (Moskva davlat tilshunoslik universiteti) muloqot jarayonida xushmuomala lisoniy tuzilmalar qo'llanishining kognitiv, pragmatik jihatlarini aniqlash (Moskva davlat tilshunoslik universiteti), til tizimida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyatlarini ajratish (Samarqand davlat chet tillari instituti).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishi tarixan ingliz olimi J. Ostin nomi bilan bog'liq bo'lsa, hurmat tamoyillari bo'yicha an'anaviy qarashlar P. Braun va S. Levinsonlar tomonidan olg'a surilgan. Nutqiy aktlar va hurmat tamoyillari nazariyasining rivojlanishiga rus tilshunos olimlari T.V. Larina, Ye.A. Rudneva, I.P. Susov, V.V. Bogdanov, G.G. Pochepsov, ispan tilshunoslari L. Kummings, X. Xaverkate, V. Eskandel, R. Fuyentes³.

O'zbek tadqiqotchilari ham ma'lum darajada nutqiy aktlar nazariyasi, hurmat tamoyillarining ifodalanishi, ularni shakllantiruvchi vositalarning lug'aviy, semantik, va pragmatik xususiyatlarini o'rganishga kirishdilar. Bu borada Sh. Safarov, M. Hakimov, H. Hojiyeva, X. Imamova, A. Muminova, M. Buzrukova va boshqalarning ishlarini alohida qayd etib o'tish lozim⁴.

Xorijiy ilm muassasalarida katta e'tibor hurmat tamoyillarining lisoniy voqelanishiga qaratilib kelinmoqda⁵. Shu jumladan, hurmat tamoyillarini tillar va

³ Austin J.L. *Cómo hacer cosas con palabras*. – Barcelona: Edición Paidós Ibérica, S.A., 2004. – 220 p.; Searle J.P. *Expression and meaning. Studies in the theory of Speech Acts*. – Cambridge: CUP, 1979. – P. 48-53; Grice H.P. *Logic and conversation // Syntax and semantics. Speech acts*. – New York: Academic Press, Vol.3. 1975. – P. 45-58; Cummings L. *Pragmatics. A Multidisciplinary Perspective*. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2005. – 336 p.; Haverkate H. *Aproximaciones pragmalingüísticas al español*. – Amsterdam: Ediciones Rodopi, 1993. – 149 p.; Escandell V., María V. *Introducción a la pragmática*. – Barcelona: Ariel, 1999. – 278 p.; Fuentes R.C. *Lingüística pragmática y análisis del discurso. Serie Bibliotheca Philologica*. – Madrid: Arco Libros, 2000. – 415 p.; Gil J.M. *Introducción a las teorías lingüísticas del siglo XX*. – Buenos Aires: Ed. Melusina, 1999. – 310 p.; Сусов И.П. *Лингвистическая прагматика*. – Винница: «НоваКнига», 2009. – 272 с.; Богданов В.В. *Речевое общение. Прагматические и семантические аспекты*. – Л.: ЛГУ, 1990. – 88 с.; Почепцов Г.Г. *Коммуникативные аспекты семантики*. – Киев: Вища Школа, 1987. – 131 с.

⁴ Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 286 b.; Hakimov M. *O'zbek pragmalingvistikasi asoslari*. – T.: Akademnashr, 2013. – 176 b.; Hakimov M. *Pragmalingvistika asoslari*. – Farg'ona: Classic, 2020. – 420 b.; Nurmonov A. *Sintaktik birliklarning pragmatik tamoni // Tanlangan asarlar. III – jild*. – T.: Akademnashr, 2012. – B. 244-248.; Hojiyeva H.Ya. *O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati*.: Filol.fanlari nomzodi... dis. – Samarqand, 2001. – 130 b.; Mo'minova S. *O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari*. Filol. fan dok. ... dis. - T., 2000. – 235 b.; Mo'minova A.A. *Reklama matnlarida undash kategoriyasining verballashuvi*. Filol.fanlari dokt.diss.avtoref. – T., 2021. – 36 b.; Buzrukova M.M. *Iltimos nutqiy aktining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari materiallarida)*. Filol. fani bo'yicha falsafa dokt. (PhD)...diss. – Samarqand, 2021.- 169 b.

⁵ Любимов А.О. *Средства выражения побуждения в португальском языке. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук.* – М., 1984. – 17 с.; Беляева Е.И. *Модальность и прагматические аспекты директивных*

madaniyatlararo chog'ishtirma usulda tahlil qilish an'anasi shakllanmoqda⁶.

Shuningdek, hozirgi paytda izchil rivojlanib borayotgan lingvomadaniyatshunoslik sohasida ham hurmat kategoriyasining turli lisoniy madaniyatlardagi ko'rsatkichlari va ularni namoyon qiluvchi lisoniy vositalarning faollashuv ko'lamini haqidagi ma'lumotlar jamlanmoqda⁷.

Xushmuomala tarzda harakatga undash yoki boshqa pragmatik mo'ljalga ega bo'lgan nutqiy aktlarning ispan tilida hurmat tamoyillariga asoslanib namoyon bo'ladigan xususiyatlari ham, albatta, tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolmagan⁸.

Lekin ushbu turdagi kommunikativ birliklarning ispan madaniyatiga xos lisoniy-madaniy jihatlari, ularning voqelanishiga zamin yaratuvchi etnopragsmatik omillar qatorini belgilashga oid muammolar muhokamasi zarurati mavjudligini inkor qilib bo'lmaydi. Umuman, hurmat tamoyillarining eksplitsit va implitsit tarzda, tagma'noli ifodalash masalasi tilshunoslikda tor ko'lamda o'rganilgan mavzulardandir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Diskursni kognitiv, pragmatik va sotsiolingvistik o'rganish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ispan lingvomadaniy hamjamiyatida samarali muloqot mazmun ko'lamini shakllantirishda ishtirok etadigan lisoniy va nolisoniy

речевых актов в современном английском языке. Автореф.дисс. ... докт.филол.наук. – М., 1988. – 22 с.; Саранцаприл Ц. Речевые акты побуждения, их типы и способы выражения в русском языке. Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Н. Новгород, 1997. – 21 с.; Puga J. La atenuación en el castellano de Chile: Un enfoque pragmalingüístico. – Valencia: Universitat de València, 1997. – 213 p.; Hernández F. N. La cortesía en la conversación española de familiares y amigos. La búsqueda de equilibrio entre la imagen del hablante y la imagen del destinatario. – Denmark: Aalborg Universitet, 2002. – 261 p.

⁶ Яковлева Г.Г. Директивный дискурс в диалогическом пространстве разных языков: строевые и функциональные аспекты описания. Автореф. дисс. ... докт.филол.наук. – Тверь, 2005. – 22 с.; Маслова А.Ю. Коммуникативно-семантическая категория побудительности и её реализация в славянских языках (на материале сербского и болгарского языков в сопоставлении с русским). Автореф.дисс. ... докт.филол. наук. – М., 2009. – 25 с.; Seytjanov J. Ye. Ingliz va o'zbek tillarida undalmaning qiyosiy tadqiqi. Filol.fan.nomzodligi diss. – T., 2012. – 20 b.; Contreras J. El uso de la cortesía y las sobreposiciones en las conversaciones. Un análisis contrastivo alemán-español. – Valencia: Universidad de Valencia, 2015. – 178 p.

⁷ Masalan, qarang: Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2022. – 288 с.; Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. – М.: URSS, 2016. – 456 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Изд. Центр «Академия», 2007. – 208 с.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – T.: TDtau, 2019. – 245 b.; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural Linguistics. T.:Vneshinvestprom, 2019. – 208 b.; Хошимов Г.М., Хошимов М.Г. К лингвокогнитивной и лингвокультурологической компетенции носителя языка и переводчика // Актуальная проблема современной лингвистики. – Т., 2021. С. 198 – 204 с.; Маматов А. Межкультурные измерения ценностных ориентаций представителей узбекской и французской культур // Русский язык и литература в Узбекистане. Т.,2019. С. 113-117.; Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – T.: Turonzamin ziyo, 2015. -25 b.; Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot, 2017. – 164 b.

⁸Плутцкая И.В. Социо и прагмалингвистический анализ единиц испанского речевого этикета. М., 1993. – 153 с.; Contreras J. El uso de la cortesía y las sobreposiciones en las conversaciones. Un análisis contrastivo alemán-español. – Valencia: Universidad de Valencia, 2005. – 178 p.; Hernández F. N. La cortesía en la conversación española de familiares y amigos. La búsqueda de equilibrio entre la imagen del hablante y la imagen del destinatario. – Denmark: Aalborg Universitet, 2002. – 261 p.; Santamaria G.C. La negociación del acuerdo en la conversación coloquial. Estudio contrastivo español-Inglés. Universidad Complutense de Madrid. Tesis de doctorado disponible en www.edice.org.

vositalar tizimi asosida hurmat tamoyillari voqelanishining sotsiopragmatik asoslarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aniq bir muloqot vaziyatida yuqori darajadagi kommunikativ natijaga erishish maqsadida nutqiy ta'sirning eng muqobil yo'llarini tanlash tamoyillari hamda pragma-kognitiv mexanizmlari majmuasini aniqlash;

ispan nutqiy aktlar kontekstida sotsiopragmatik omillarni tadqiq etish vositasida xushmuomalalik tushunchasining mazmuni, tarkibiy qismlari va leksik manzarasini ochib berish;

nutqiy aktlar doirasida lisoniy hurmat strategiyasiga asoslanish vositasida ko'zlangan perlokutiv natijaga erishishga yo'naltirilgan tamoyillarni belgilash;

tahlilga tortilgan nutqiy aktlar kontekstida tinglovchining obraziga xavf solish ehtimoli yuqori bo'lgan lisoniy va nolisoniy vositalar majmuini aniqlash;

tajriba-sinov asosida hurmat tamoyillarini etnosotsiopragmatik aspektida o'rganish usullarini ishlab chiqish;

sotsiolingvistik tajriba-tadqiqi asosida ispan madaniyatida hurmat tamoyillaridan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar qatorini ajratish va ularning sotsiopragmatik mohiyatini isbotlash.

Tadqiqotning obyektini ispan muloqot matnida, xususan, badiiy asarlarda aks etgan hamda ikki turdagi so'rovnoma shaklida olingan javoblarda faollashuvi namoyon bo'lgan kontekstlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti hurmat tamoyillarining ispan tili diskursida faollashuv shart-sharoitlari hamda ularning tanlovini ta'minlovchi sotsiopragmatik omillar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada nutqiy muloqot jarayoni tahlili quyidagi usullarni qo'llash orqali bajarilgan: tavsifiy, statistik (so'rovnoma natijalarini aniq hisoblash bilan bog'liq usul), qiyosiy-taqqoslash (turli ijtimoiy maqomdagi nutq subyektlarining nutqiy strategiyalaridagi farqlarni o'rganishda). Bundan tashqari, muloqot matnidagi ma'lumotlar diskursiv hamda kontekstual tahlilga tortilgan. Shuning bilan birga, dissertatsiya ishida sotsiolingvistik va nutqiy faoliyatning intensional tahlili usullariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lisoniy hurmat strategiyasini voqelantirish orqali ko'zlangan kommunikativ maqsad va muloqot samaradorligiga erishishning sotsiopragmatik va lingvomadaniy tamoyillari aniqlangan;

xushmuomala lisoniy tuzilmalar muloqot birligi sifatida shakllanishida namoyon bo'ladigan pragmalingvistik jarayonlarning mohiyatini aniqlashda ispan tilida olib boriladigan muloqot vaziyatining simmetrik yoki asimmetrik ijtimoiy munosabatlarning qaysi guruhiga taalluqligini ularning turli diskurs muhitlarida voqelanishiga ko'ra inobatga olish lozimligi isbotlangan;

muloqot mazmunining shakllanishida suhbatdoshlarning ijtimoiy ierarxiya tuzilishida tutgan o'rniga ko'ra adresat va adresantning ijtimoiy mavqei, pragmatik zahirasi, madaniy xususiyatlari, yoshi hamda gender omillariga asoslanib nutqiy faoliyat olib borish lozimligi dalillangan;

ispan tili sohiblari orasida suhbatdoshning obraziga tahdid solish xavfini

pasaytirish maqsadida nutqiy muloqot odobiga mos keladigan va ommalashgan nutqiy harakat shakllari sifatida pragmatik ko'chimga asoslangan bilvosita nutqiy aktlar namoyon bo'lishi isbotlangan;

nutqiy aktlarning ispan lingvomadaniyatida xushmuomala ifodalanishiga ta'sir etuvchi etnopragsmatik omil sifatida namoyon bo'ladigan muloqot muhitini uning ishtirokchilarining yoshi, jinsi, ta'lim darajasi hamda ijtimoiy ierarxiy pog'onalarda tutgan o'rniga nisbatan uchta ijtimoiy munosabatlarda asoslangan;

turli muloqot vaziyatlarida ispan lingvomadaniyatiga xos bo'lgan hurmat tamoyillarini voqelantirishning til tizimiga xos leksik-grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, muloqot ishtirokchilarining milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra idioetnik maqomga ega nolisoniy omillar bilan ham bog'liqligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

hurmat tamoyillariga asoslangan nutqiy aktlarning ispan muloqot matnida voqelanishiga ta'sir etuvchi etnosotsiopragsmatik omillar, xususan, nutq subyektlarining yoshi, ijtimoiy maqomi, ma'lumoti kabilar bilan bog'liq holdagi ustuvor xususiyatlari aniqlanib, olingan xulosalar muloqot muhitini yanada chuqurroq o'rganishga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

xushmuomala muloqot strategiyalarning ispan tili sohiblariga xos bo'lgan milliy-madaniy xususiyatlari sotsiolingvistik tadqiq jarayonida o'tkazilgan so'rovnomalar orqali olingan javoblar tahlili bilan bog'liq tadqiqotlar va metodik ishlar yaratilishiga qo'l kelishi aniqlangan;

diskursiv faoliyat jarayonida nutqiy aktlar turlarining tanlovi ijobiy yoki salbiy strategiyasi hamda hurmat kategoriyasi tamoyillariga tobe holda amalga oshirilishi haqidagi ma'lumotlar ispan tili ta'limini optimallashtirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi pragmalingvistikada foydalanilgan yondashuv va usullarning qo'llanilishi bilan, bu sohada bajarilgan avvalgi tadqiqotlarning nazariy mazmunini tanqidiy tushuntirish bilan, katta hajmdagi tahlil qilingan faktologik materialdan foydalanilganligi bilan, tadqiqot natijalari ishning nazariy mazmuniga mosligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati shundaki, muloqot vaziyatida yuqori darajadagi kommunikativ natijaga erishish maqsadida nutqiy ta'sirning ispan tilida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi lisoniy shakllar bo'yicha eng muqobil yo'llarini tanlash tamoyillari hamda pragma-kognitiv mexanizmlari majmuasini diskurs nazariyasi, nutqiy akt, muloqot intensiyasi bo'yicha erishilgan xulosalar pragmalingvistika va lingvokulturologiya fanlarini yangi nazariy ma'lumotlar bilan to'ldiradi; shuningdek, mazkur lisoniy vositalarning tanlanishiga ta'sir etuvchi pragmatik, ijtimoiy va milliy-madaniy omillar tadqiqi muloqot jarayonida etnosotsiopragsmatik va lisoniy-madaniy omillarni me'yorlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Dissertatsiya ishi natijalarining tilshunoslikning nazariy kurslari, kommunikativ tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot sohalari bo'yicha o'quv adabiyotlari yaratish, shuningdek, ispan tilini ta'lim tizimining quyi va yuqori bosqichlarida o'rgatishda amaliyotga tatbiq

etishga tavsiya etishga mo'ljallangan lingvodidaktik ko'rsatmalarni shakllantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hurmat tamoyillarini nutqiy aktlar doirasida voqelantiruvchi etnosotsiopragsmatik omillarni tadqiq etish jarayonida olingan nazariy va amaliy natijalari asosida:

lisoniy hurmat strategiyasini voqelantirish orqali ko'zlangan kommunikativ maqsad va muloqot samaradorligiga erishish tamoyillariga oid xulosalardan Ispaniyaning til ta'limi jarayonida foydalanilgan. (Kadiz Universiteti xalqaro aloqalar va uzluksiz ta'lim Departamentining 2022 yil 7 dekabrda ma'lumotnomasi). Natijada, ispan muloqot madaniyatining xushmuomala nutqiy vositalar faollashuv tizimini aniqlash tamoyillari yaratilgan;

xushmuomala lisoniy tuzilmalar muloqot birligi sifatida shakllanishida namoyon bo'ladigan pragmalingsvistik jarayonlarining mohiyatini aniqlashda olib boriladigan muloqot vaziyatining tadqiqot doirasida taklif etilgan uch guruhidan qaysi biriga taalluqligini inobatga olish lozimligiga oid xulosalardan Buyuk Britaniyaning Uorvik Universitetida foydalanilgan (Uorvik Universiteti xalqaro aloqalar va uzluksiz ta'lim Departamentining 2022 yil 4 avgustdagi ma'lumotnomasi). Natijada, xushmuomala kommunikativ strategiyasini belgilash ko'nikmalarini shakllantirish harakati jadallashgan;

muloqot mazmunining shakllanishida adresat va adresantning ijtimoiy mavqei, pragmatik zahirasi, madaniy xususiyatlari, yoshi hamda gender omillariga asoslanib nutqiy faoliyat olib borish lozimligiga oid xulosalardan ispan tili o'qituvchilarining malakasini oshirish maqsadida Yevropa ittifoqining ERASMUS + dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: «O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish» nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 18 martdagi 724/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'qituvchilarni lingvistik va kommunikativlik qobiliyatini oshirish, pragmalingsvistik kompetensiya sohasidagi bilimni oshirish hamda ta'lim tizimi jaryonini mustahkamlash va barqarorlashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuv sifatida xizmat qilgan;

ispan tili sohiblari orasida suhbatdoshning obraziga tahdid solish xavfini pasaytirish maqsadida nutqiy muloqot odobiga mos keladigan va ommalashgan nutqiy harakat shakllari sifatida bilvosita nutqiy aktlar namoyon bo'lishiga oid xulosalardan talabalarning lisoniy kompetentsiyasini shakllantirish maqsadida Erasmus+ dasturining ICM, KA-107 - International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, through staff and student mobility exchange projects between Uzbekistan State University of World Languages and Valladolid University (Spain) - 2019-1-ES01-KA107-061356- (Evropa Ittifoqi hamda O'zbekiston Oliy Ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro tajriba almashinuvi doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda Valladolid universiteti (Ispaniya) o'rtasidagi kredit safarbarligi) xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2022 yil 1 martdagi 06-1/127-son ma'lumotnomasi). Natijada, ikki OTM o'rtasida ilk bor ispan tilidagi ilmiy hamda badiiy materiallar misolida harbir nutqiy akt doirasida xushmuomala

nutqiy tuzilmalarning voqelanishi, ispan muloqot madaniyatining ustuvor xususiyatlari va ularning diskursda faollashuviga ta'sir etadigan etnosotsiopragsmatik omillar tavsifi mazkur dastur mazmunini boyitgan;

nutqiy aktlarning ispan lingvomadaniyatida xushmuomala ifodalanishiga ta'sir etuvchi etnopragsmatik omil sifatida namoyon bo'ladigan muloqot muhitini uning ishtirokchilarining yoshi, jinsi, ta'lim darajasi hamda ijtimoiy ierarxik pog'onalarda tutgan o'rniga nisbatan uchta ijtimoiy munosabatlar guruhlari ajratib tahlil etish usullariga oid xulosalardan ekstralingvistik bilim zahirasini oshirish maqsadida Yevropa ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016 yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DETEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masteres Programmes" loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 18 martdagi 725/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, chet tilini o'rgatishda intensiyaning tagma'noli ifodalanishi sabablari til tizimiga xos leksik-grammatik ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda olib borilishiga xizmat qilgan;

turli muloqot vaziyatlarida ispan lingvomadaniyatiga xos bo'lgan hurmat tamoyillarini voqelantirishning til tizimiga xos leksik-grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, idioetnik maqomga ega nolisoniy omillar bilan ham bog'liqligiga oid xulosalardan til ta'limiga oid virtual resurslar yaratishni jadallashtirish maqsadida I-204-4-5 raqamli "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovasion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 19 martdagi 728/30.02.01 - son ma'lumotnomasi). Natijada, sotsiopragsmatik omillarning nutqiy strategiyaga ta'sirini aniqlash yo'llari "Nazariy grammatika va fonetika", "Qiyosiy tilshunoslik", "Lingvistik tahlil metodlari" kabi fanlarning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 10 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik Dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 10 ta maqola, shu jumladan 6 tasi Ssorus bazasi ro'yxatidagi ilmiy nashrlarda, mahalliy respublika jurnallarida 10 nafar maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy qismi 223 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi hamda ilmiy yangiligi asoslangan, ishning asosiy maqsadi va vazifalari ta'riflangan, tadqiqot natijalarining nazariy va

amaliy ahamiyati aniqlangan, tadqiqotning ishchi faraziga ta'rif berilgan, asosiy tadqiqot uslublari ko'rsatib o'tilgan, himoyaga olib chiqilayotgan holatlarga ta'rif berilgan, tadqiqot materiallarining joriy qilinishi natijalari qayd etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hurmat tamoyillari tatbiqining nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda hurmat tamoyillarini o'rganish sohasida tilshunoslikda bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, erishilgan natijalar umumlashtirilgan. Hurmat tamoyillari etnosotsiopragmalingvistik tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilib, uning asosiy yo'nalishlari, xususan, ispan tilshunosligida hurmat kategoriyasining o'rganilishi, muloqot jarayonida o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi lingvistik xushmuomalalik strategiyalariga ahamiyat qaratilgan.

Nutqiy muloqot inson faoliyatining eng muhim amallaridan biri sanalib, psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik kabi turli fanlarning o'rganish predmeti hisoblanadi. “Muloqot so'zlovchiga ta'sir o'tkazish, uni biror javob harakatiga undash uchun bajariladi ... muloqotga kirishayotgan shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatish emas, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashdir⁹. Hozirgi vaqtda lingvistik tadqiqotlarda shaxslararo o'zaro munosabat masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Hurmat tamoyillari nutqiy faoliyatning majburiy unsurlaridan biri sifatida qaralib, muloqotning silliq, muvaffaqiyatli va ziddiyatsiz amalga oshirilishini ta'minlash vositasi ekanligiga ishora qilinmoqda.

Har bir fanda muayyan yo'nalishlar mavjud. Ayrim yo'nalishlar voqelikni obyektiv aks ettirmaganligi sababli fan “sahnasi”dan tushib ketadi, boshqalari voqelikning ko'p qirralarini obyektiv aks ettirganligi uchun “umrboqiy” bo'lib qoladi” deya ta'kidlaydi O'.Q. Yusupov¹⁰. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqot ishlarida pragmatik nuqtai nazardan lisoniy hurmatning turli ta'riflari keltirilgan bo'lib, ularni to'rt guruhga bo'lish mumkin: birinchisida hurmat tamoyillari – ziddiyatdan chiqib ketish va muvaffaqiyatli muloqotni ta'minlashga qaratilgan xatti-harakat sifatida qaralsa¹¹; ikkinchisida muayyan ijtimoiy munosabatlarga mos keladigan xatti-harakat sifatida talqin qilinadi¹². Shuningdek, hurmat tamoyillari – o'zgalarning his-tuyg'ulariga nisbatan e'tibor¹³ hamda hurmat tamoyillari – so'zlovchi xatti-xarakterlariga nisbatan tinglovchining xushmuomala bahosi sifatida¹⁴ ham ta'riflanadi.

⁹ Safarov Sh.S. Pragmalingvistika. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B. 106.

¹⁰ Yusupov O'. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim islohotlar // Filologiya masalalari. – T., 2011. № 2. – B. 9.

¹¹ Brown R., Levinson S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.; Lakoff R. Language and woman's place. – N.Y.: Harper and Row, 1975. – Pp. 45-79.; Leech G. Principles of pragmatics. – L. – N.Y.: Longman, 1983. – 250 p.; Usami M. Discourse Politeness Theory and Cross-Cultural Pragmatics // Tokyo: Hituzi Syobo, 2006. – P.19-41.

¹² Braun F., Schubert, K. Terms of Address: Problems of Patterns and Usage in Various Languages and Cultures. Berlin: Mouton de Gruyter, 1988. – Pp. 45-64.; Meier A. Defining politeness: Universality in appropriateness // Language Sciences. – Oxford, 1995. Vol. 17. №4. – P. 345-356.; Fräser, B. Perspectives on politeness // Journal of Pragmatics. Vol. 14, № 2, 1990. – P. 219-236. Marquez R.R. Linguistic politeness in Britain and Uruguay. – Amsterdam: John Benjamins, 2000. – 461 p.

¹³ Hill B. Ide S. et al. The concept of politeness: An empirical study of American English and Japanese // Journal of Pragmatics, 1986. № 10. – P. 347-371.; Sifianou M. Politeness Phenomena in England and Greece. – Oxford: Clarendon Press, 1992. – 286 p.

¹⁴ Eelen G. A critique of politeness theories. – Manchester: St. Jerome Publishing, 2001. – 280 p.; Mills S. Gender and Politeness. – Cambridge University Press, 2003. – 278 p.

Tilshunoslikda eng ko‘p tarqalgan ta’rif bu – hurmat tamoyillarining nutqiy muloqot jarayonida ziddiyatlardan chiqib ketish va suhbatdoshlar o‘rtasidagi muvaffaqiyatli va samarali muloqotni ta’minlashga qaratilgan xatti-harakat sifatida izohlanishidir. Ushbu izoh hurmat tamoyillarini insonlararo uyg‘un munosabatlarni hosil qilishga qaratilgan hatti-harakatlar majmui ko‘rinishida talqin qilishga asoslangan bo‘lib, shu tarzda nutqiy muloqotning illokutiv kuchini keng ma’noda ifodalashga xizmat qiladi, ya’ni - kommunikatsiya jarayonining samaradorligini oshirishga zamin yaratadi¹⁵.

Pragmalingvistik yondashuv doirasida hurmat tamoyillarini tadqiq etganda tinglovchining shaxsiyatiga e’tibor qaratish hamda uning obraziga tahdidni imkoni boricha oldini olish tavsiya etiladi. Chunki har bir inson o‘zini shaxs sifatida qadrd-qimmatga ega bo‘lishi, jamoada hurmat-ehtiroimga sazovor bo‘lishni istaydi. Hurmat tamoyillarining mazmuni va mohiyati turli madaniyatlarda bir-biridan farq qilsa-da, o‘zaro hamkorlik munosabatlari doirasida bo‘lganda, suhbatdoshning muloqot doirasidagi ehtiyojlariga e’tibor qaratishning ijtimoiy jihati umumiy ko‘rinishga ega.

P. Braun va S. Levinsonning “Politeness: Some Universals in Language Usage”¹⁶ nomli tadqiqot ishida ikki turdagi xushmuomalalik farqlanadi: shaxsning ikki asosiy istagi bilan belgilangan “salbiy” va “ijobiy” xushmuomalalik, ya’ni shaxsning o‘z xatti-harakatlarida to‘sqinlikka uchramaslik istagi va suhbatdoshning roziligini olish xohishi bog‘li holda kechadi. Ushbu muloqot intensiyalari insonning o‘z-o‘zini hurmat qilishiga bo‘lgan tahdidlarni yumshatish uchun amalga oshirilgan nutqiy harakat strategiyasini belgilaydi.

“Ijobiy” hurmat suhbatdoshning ijobiy qiyofasini mustahkamlashga xizmat qiladi: ya’ni so‘zlovchi suhbatdoshiga bo‘lgan samimiyligini e’tirof etgan holda, u bilan hamfikr ekanligini ifodalaydi. Samimiy bo‘lish, iltifot ko‘rsatish, ma’lum ijtimoiy guruh ichidagi vaziyatni inobatga olgan holda do‘stona muhit yaratish va kelishmovchilikning oldini olish – bularning barchasini “ijobiy” hurmat namunalari sifatida ko‘rsatish mumkin.

“Salbiy” hurmat shaxs mustaqilligi, uning shaxsiy hududi va chegaralari daxlsizligi saqlanib qolinishi zarurligiga xizmat qilishini nazarda tutadi. Nutqiy muloqotda ijtimoiy masofa va noqulaylik mavjudligiga ishora qiladigan, og‘ir-bosiqlik, vazminlik, rasmiyatchilik va xushmuomalalik ifodalari “salbiy” hurmat namunalari¹⁷.

Hurmat tamoyillariga aniqlik kiritish niyatida bo‘lgan G. Graysning ilmiy tadqiqotlarida keltirilgan “hamkorlik/kooperatsiya tamoyili”¹⁸ lisoniy hurmat nazariyasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur tamoyilning muloqot jarayonidagi o‘rni haqida turli nuqtai nazarlar mavjudligi tabiiy hol. Ba’zi mualliflar¹⁹ ushbu tamoyilni xushmuomalalik qoidalaridan biri deb hisoblasalar,

¹⁵ Haugh M. Revisiting the conceptualization of politeness in English and Japanese, 2004. – P. 85-109.

¹⁶ Brown R., Levinson S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

¹⁷ O‘sha manba, - B. 135-137; Holmes J. Women, Men, and Politeness. – L.: Longman, 1995. – 254 p.

¹⁸ Grice H.P. Logic and conversation // Syntax and semantics. Vol.3: Speech acts. – New York: Academic press, 1975. – P. 45-58.

¹⁹ Portoles J. Pragmática para hispanistas. – Madrid: Síntesis, 2004. – 107 p.

boshqa bir guruh vakillari²⁰ “hamkorlik tamoyili”ning buzilishi uning mavjudligi uchun mezon deb hisoblaydilar²¹.

J. Lich “xushmuomalalikni”ni “hamkorlik tamoyillari” va o‘zaro voqelikdagi munosabatlar orasidagi “ko‘prik” ekanligini e‘tirof etgan. Bilvosita nutqiy aktlar, so‘roq tuzilmalar va baholash ohangidagi nutqiy tuzilmalar yuqori darajada hurmat tamoyillariga tayanilgan bo‘ladi, zero mazkur holatlarda tinglovchi tanlash imkoniyatiga ega bo‘lib, so‘zlovchi suxbatdoshiga o‘z fikrini o‘tkazish niyatidan yiroq bo‘ladi²².

Xushmuomalalik nazariyasining rivojlanishida “obraz” va “obrazga tahdid soluvchi harakat” tushunchalari muhim o‘rin tutadi (“Face threatening act”). “Face” tushunchasi, bir tomondan, muloqot ishtirokchisining obrazi, uning imidjiga ishora etsa, ikkinchi tomondan, so‘zlovchining nafaqat shaxsiy makoni, vaqti, ko‘rinishi (tana va kiyim), balki kognitiv imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan hududi sifatida qaraladi.

Tinglovchining obraziga tahdid qiluvchi harakatlar qatoriga – tanqid qilish, kelishmaslik, gapni bo‘lish, bosim o‘tkazish, biror-bir ma‘lumotni yetkazish, noqulay vaziyat yaratish va boshqalar kiradi. Vaqt to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish maqsadidagi oddiy so‘rov tinglovchining obraziga tahdid soladi: adresat vaqtni bilish xuquqini oladi va tinglovchining e‘tiborini band etadi. “Obrazga tahdid soluvchi harakatlar”ni bajarishda so‘zlovchi odatda nutqining noxush ma‘nosini yumshatuvchi, hurmat tamoyillariga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadi²³. “Obraz” alohida ijtimoiy munosabatlar doirasida namoyon bo‘lib, har qanday inson ham cheksiz qiyofalarga ega bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, “obrazlar”ni muloqot muhitiga asoslanib, jamiyatda turli rollarni ijro etish uchun beriladigan niqobga qiyoslash mumkin.

Shunday qilib, hurmat tamoyillarining mohiyati, birinchi navbatda, adresat qanday fikrlamoqda yoki kim qay tarzda anglamoqda kabi savollarga emas, balki qaysi axborot va qanday usulda ifodalanyapti kabi savolning javobida namoyon bo‘ladi. Hurmat tamoyillarining maqsadi – suxbatdoshning qadr-qimmatini, uning g‘ururini kamsituvchi xabarlarini yetkazish zarurligiga qaramasdan, uyg‘un va teng ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolishdan iborat.

Ispan tilshunosligining an‘anaviy ta‘riflariga binoan²⁴ xushmuomalalik hurmat va ehtirom namunalari majmui sifatida talqin etiladi. Nutqiy muloqot ishtirokchilarining ma‘lum muloqot vaziyatidagi ijtimoiy mavqeiga binoan hurmat tamoyillarining muayyan lisoniy shakllaridan foydalanish tilning etnosotsiopragsmatik omillariga e‘tibor qaratishni talab etadi. Masalan, iltimos nutqiy aktini voqelantirish uchun ispan til sohiblari xohish-istak mayli: Me gustaría.../Quisiera..., ¿Podrías...?/¿Me podría(s)...?/¿Sería

²⁰ Brown R., Levinson S. Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

²¹ Kitamura, N. “Politeness” phenomena and mild conflict in Japanese casual conversation. Unpublished doctoral dissertation, University of Sydney, 2001. – Pp. 12-30.

²² Leech G. Principles of pragmatics. – L. – N.Y.: Longman, 1983. – Pp. 131-139.

²³ Morand D. Language and power: An empirical analysis of linguistic strategies used in Superior/Subordinate communication // Journal of Organizational Behavior, 2000. – P. 235.

²⁴ Escandell V., María V. Cortesía y relevancia. En: Haverkate H., Mulder G., Maldonado C.F. (eds.), La pragmática lingüística del español. Recientes desarrollos. – Amsterdam: Editions Rodopi, B.V., 1998. – Pp. 7-24.

posible...?/Quería.../¿Te importaría...? /Sería tan amable de...? yoinki Dame...sifatida bevosita buyruq shaklariga, so‘roq nutqiy tuzilmalar: ¿Me ayudas?; querer va necesitar performativ fe’llariga: Quiero un café; Necesito que me prestes tu libro; kabi lisoniy shakllarga murojaat etishadi. Shu bilan birgalikda, tinglovchiga nisbatan bilvosita murojaat qilish shakllari ham ommalashgan: ¿Me puedes poner un café?, ¿Puedes decirme la hora?, ¿Quieres ayudarme? yoki faqatgina obyekt ifodalangan elliptik shakllar: Un café; La sal va hokazo.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ispan tilida so‘zlovchi, ammo turli madaniyat vakillariga tegishli bo‘lgan nutq subyektlarining hurmat tamoyillariga asoslangan nutqiy strategiyasi bir-biridan farq qiladi. Masalan, Ispaniyada umumiy ovqatlanish shahobchalarida *establecimientos de servicio, como cafés, tiendas o panaderías* bevosita nutqiy tuzilmalardan foydalanish urf bo‘lsa, Lotin Amerikasida ushbu muloqot vaziyatlarida bevosita nutqiy aklardan foydalanishni lozim topishadi. Albatta, ispaniyaliklarning bevosita nutqiy tuzilmalardan foydalanishi ham hurmat tamoyillariga zid hisoblanmaydi. Shuningdek, erkalash-kichraytirish suffikslarining ishlatilmasligi ham xushmuomalalikka putur yetkazmaydi:

- *Dame un café/ Un café/Ponme un café/¿Me das un café?/ ¿Me pones un café?*

Ispaniyada *poner* (qo‘ymoq) fe’li iltimos pragmatik mazmunini voqelantiradigan bo‘lsa, Lotin Amerikada ushbu fe’l mazkur vazifani bajara olmaydi. Masalaning qiziq tomoni shundaki, ushbu o‘rinda Argentinliklar *regalar* (bermoq, sovg‘a qilmoq) fe’lini ishlatishni maqul topishadi: *¿Me regala un café?* Albatta, bu davlatda ham ayrim holatlarda muloqot intensiyasi bevosita, imperativ shakllar bilan ham ifodalanadi. Ammo aksariyat hollarda *por favor* xushmuomalalik markerlari bilan yoinki erkalash-kichraytirish suffikslari bilan nutqiy tuzilmaning modal mazmuni yumshatiladi. Qiyoslang:

- *Deme un café, por favor/- Por favor, deme un café;*

- *Deme un cafecito y la cuenta / Regáleme un café y la cuenta*

Zamonaviy ispan tilshunosligida hurmat tamoyillari suhbatdoshlarning qiziqishlari to‘g‘ri kelmagan muloqot muhitida yuzaga kelish ehtimoli mavjud bo‘lgan nizodan qochish yoki uni imkon qadar kamaytirish maqsadida so‘zlovchi tomonidan ishlatiladigan lisoniy strategiyalar qatori tariqasida tahlil qilinadi²⁵.

Xushmuomalalikni go‘zal xulq sifatida belgilash bu hodisaning xulq-atvor me‘yorlari darajasiga kirishini ta’minlaydi. Ammo, yaxshi xulq salbiy maqsadlar va shaxsga nisbatan hurmatsizlik fazilatlarini bilan birlashgan holda namoyon bo‘lishi mumkin. Nutqdagi bu kabi ziddiyatli holatlarni ispan tilidagi “educado” va “cortés” kabi tushunchalar yaqqol ko‘rsatib beradi. Birinchisi xulq-atvorning tashqi jihatiga ko‘proq aloqador bo‘lsa, ikkinchisi insonga nisbatan bo‘lgan zohiriy munosabat bilan botindagi iliq munosabatning uyg‘unligini ko‘rsatib beradi²⁶.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Nutqiy aktlar doirasida hurmat tamoyillarini faollashtiruvchi lisoniy vositalar**” deb nomlanib, unda hurmat

²⁵ Albelda M.M. Atenuantes en España: distancia o acercamiento. En Briz et al. (eds.), Cortesía y conversación: de lo escrito a lo oral. – Barcelona: Ariel, 2008. – P. 98-113.

²⁶ Martínez Amador E.M. Diccionario gramatical y de dudas del idioma / Emilio M. Martínez Amador. – Barcelona: Editorial Ramon Sopena, S.A., 1985. – P. 57.

tamoyillarining har bir nutqiy aktlar guruhida voqelanish shakllarini aniqlash maqsadi ko‘zlangan. Tahlil qilingan ispan muloqot matniga tegishli nutqiy aktlarni hurmat tamoyillari nuqtai nazaridan tadqiq etar ekanmiz, fanga ma’lum tasniflarni inobatga olgan holda ularni to‘rtta guruhga bo‘lishni lozim topdik. Tadqiqot ishimizda ispan badiiy diskursini tahlil qilish orqali, ularda voqelangan nutqiy aktlarni qaysi guruhga mansubligi hamda ushbu nutqiy aktlar doirasida xushmuomala shakllar qay tarzda ifodalanishini sharhlash orqali ma’lum darajadagi ahamiyatli natijalarga erishish maqsadini ko‘zladik. Taklif etilgan lisoniy strategiyalar verbal xushmuomalalik doirasida tasvirlanib, talqin qilindi va misollar vositasida izohlandi. Shuni ham ta’kidlash joizki, tahlilga tortilgan misollar turli janrdagi kontekstlardan olingan, zero tahlil obyekti qanchalik keng bo‘lsa, keltirilgan xulosalar talqini shunchalik aniq bo‘lishi kuzatiladi.

Hurmat tamoyillarining muloqot matnida voqelanishi nutqiy aktlar guruhining qaysi biri doirasida faollashuvi bilan bog‘liqdir. Avvalambor, e’tiborimizni aynan assertiv nutqiy aktlarga qaratishni rejalashtirdik. Assertiv nutqiy aktlar o‘z tabiatiga ko‘ra xushmuomala bo‘lmagan nutqiy aktlar doirasiga kiradi, binobarin, ularning amalga oshirilishida suhbatdoshga qulaylik tug‘dirish kabi implitsit maqsad mavjud bo‘lmaydi. Assertiv nutqiy akt orqali suhbatdoshlar uchun obyektlarning haqiqiy, ishonchli, xolis holati taqdim etiladi. Illokutiv maqsad – so‘zlovchining axboroti haqiqatligini tasdiqlovchi nutqiy aktni talaffuz etishdan iborat. Masalan: bashorat, tanqid, tan olish, tasnif. “Assertiv nutqiy aktlarning illokutiv maqsadi suhbatdosh hodisalarning haqiqiy holatini ifodalashi kabi propozitsional mazmuni qabul qilishiga erishishidan iborat”²⁷.

Hurmat tamoyillarining assertiv nutqiy aktlar ko‘lamida faollashuvi turli lisoniy vositalar, streotip tuzilmalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu shakllarda adresat qiyofasi eksplitsit tarzda ifodalangan bo‘ladi. Ulardan nutqiy tuzilmada foydalanish adresatning yetkazgan axborotida subyektiv mulohazalar qat’iyligi chegaralanadi, ya’ni, so‘zlovchi talaffuz etgan lisoniy birikmaning xaqqoniyligiga javobgarligidan ozod etiladi. Uning suhbatdoshiga, o‘z navbatida, o‘z fikrida qolish erkinligi beriladi, ya’ni nutqiy tuzilmaning haqqoniyligini qabul qilish majburiy hisoblanmaydi. Qiyoslang:

Eso al menos es **mi opinión**.

En nuestra humilde opinión, la producción que ha corrido y corre como Sevillana Medicina (...), no es la total obra de Juan de Aviñon (Alarcón P.A. El sombrero de tres picos).

Los cocineros italianos, que según nuestra opinión serían todos, sin excepción, mejores cantantes que cocineros, hacen el caldo en su bella Italia del modo que se verá. (Alarcón P.A. El sombrero de tres picos)

Ko‘rinadiki, ikkita oxirgi misolda suhbatdosh kamtarona ifodalanish maqsadida ko‘plik shaklidan foydalanib (bu yerda nuestro egalik olmoshi), hurmat tamoyillariga amal qiladi. Nutqiy tuzilmaning qat’iylilik modal mazmuni pasaytiruvchi lisoniy harakatlarning xususiyatlarini quyida ko‘rib chiqamiz.

²⁷ Haverkate H. Aproximaciones pragmalingüísticas al español. – Amsterdam: Ediciones Rodopi, 1993. – Pp. 57.

Te he traído hasta bolsos, porque si no me engaño, ni aun bolsos tienes. Pues si no estoy mal informado tienes mucho trabajo que hacer. (Cela C.J. Novelas cortas y cuentos)

Ispan badiiy asarlaridan olingan ushbu misollarda stereotiplashgan tuzilmalar turkumi vositasida adresant tinglovchini bildirgan mushohada shunchaki uning shaxsiy fikri ekanligi, voqelik bilan to‘g‘ri kelishi yoinki mutlaq haqiqat ekanligiga ishontirishga majburlamasligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur tuzilmalarda ishonchsizlik modal mazmuni ifodalanishi bilan bir qatorda, nutqiy aktning illokutiv kuchi pasaytirilishini e‘tirof etish lozim.

Keyingi guruh – ekspressiv nutqiy aktlar xushmuomala ifodalanadigan nutqiy tuzilmalar majmui sifatida adresantning ijobiy obrazini saqlaydigan, mustahkamlaydigan tuzilmalardan tashkil topadi. Ularning illokutiv maqsadi sifatida “suhbatdosh yoki adresantning his-tuyg‘ulariga ta’sir etish orqali so‘zlovchining psixologik holatini ifodalash”²⁸ qayd etiladi. Hurmat tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lgan ekspressiv aktlar salomlashish, tabrik, xushomad, tashakkur, uzr so‘rash va ezgu tilaklar bildirish kabi nutqiy tuzilmalarni qamrab oladi.

Ispan lingvomadaniyatida ommalashgan salomlashish shakllarini qarab chiqamiz. Tahlil etilgan adabiyotlar doirasida shunchaki bitta so‘zdan iborat bo‘lgan faqatgina ikkita salomlashish shakllarini uchratdik. Leksik jihatdan bo‘sh vositalar bo‘lgan *Hola* (suhbatdoshlar o‘rtasida ijtimoiy masofa yaqin bo‘lgan muloqot vaziyatlarida) va *Adios* kabi undov so‘zlari faqat birov bilan salomlashish holatlarida ishlatiladi.

Hola, Cecilia, ¿cómo va?

¡Adiós, Sr. Cléry Valeo, perdone si he tardado. (Olona L. Las diez de la noche)

Masalaning qiziq tomoni shundaki, oxirgi misolda keltirilgan *Adiós* lisoniy birligi xayrlashish va suhbatni tugatish vazifasida ishlatiladigan zamonaviy ispan tilidan farqli o‘laroq, oldingi asrlarda nutqiy tuzilmaning avvalida salomlashish tariqasida qo‘llanilishi mumkinligiga guvoh bo‘ldik. R. Fuyentesning ta’kidlashicha, “*hasta pronto, adiós, te veo mañana*” kabi lisoniy shakllar faqat xayrlashish uchungina ishlatiladi. Shu sababli ular ushbu vazifasini hech qachon bajara olmaydigan *¿qué tal?, ¿qué hay?, hola* kabi formulalar bilan taqqoslanadi²⁹.

Ushbu lisoniy tuzilmalarning ba’zi muloqot vaziyatlarida buyruq maylida qo‘llanilishiga ham duch keldik. Mazkur holatlarda buyruq mayli bosim o‘tkazuvchi illokutiv kuchga ega bo‘lmaydi va ular xushmuomala shakllar sifatida idrok etiladi. Mazkur nutqiy strategiya suhbatdoshning ijobiy obraziga urg‘u bergan holda ajratib ko‘rsatadi. Salomlashishning mazkur lisoniy shakllari voqelikda harakatga undashni bildiruvchi direktiv nutqiy aktlari vositasida ifodalangan bilvosita ekspressiv nutqiy akt hisoblanadi.

Ten buenos días, amigo. (Rubí R.T. La ceniza en la frente)

Buenas tardes tenga usted. (Luceño T. La niña del estanquero)

Xayrlashish nutqiy aktlari suhbatdoshlarning nutqiy muloqoti yakuniga yetganligini anglatadi. Tahlilga tortilgan muloqot matnlarida ushbu shakllarning

²⁸ Haverkate H. La cortesía verbal. Estudio pragmalingüístico. – Madrid: Gredos, 1994. – P. 80.

²⁹ Fuentes R.C. Lingüística pragmática y análisis del discurso. Serie Bibliotheca Philologica. – Madrid: Arco Libros, 2000. – P. 34

ifodalanish turlarining xilma-xilligiga guvoh bo'ldik. Ular ichida eng ommalashgan shakllar sifatida zamon va makonga ishora etgan nutqiy tuzilmalarni keltirish mumkin. Mazkur shakllarga ishora etuvchi xayrlashish nutqiy tuzilmalari ichida *buenas noches* va xayrlashishga munosabat bildirish uchun ishlatiladigan shunga o'xshash tuzilmalarni uchratishimiz mumkin. Buenas noches lisoniy tuzilmasi muloqot matniga asoslanib salomlashish mazmunda faollashishi mumkin.

Buenas noches. – Téngalas usted muy buenas. (Delgado S. El beso de la Duquesa)

Ma'lumki, nutq subyektlarining lisoniy harakatlariga yashab turgan jamiyatining barcha sohalari ta'sir etadi hamda ularning e'tiqodi va diniy qarashlari ham bundan mustasno emas. Zero, ispan tili sohiblarining dinga oid munosabatlarini aks ettiruvchi xayrlashish nutqiy tuzilmalarining kundalik shakllari muloqot matnida ko'p uchraydi. Ularning tez-tez takrorlanishi va unumdorligi Ispaniyada katolik dinining ta'siri sezilarli ekanligidan dalolat beradi.

A dios. – Anda con Dios. (Fernández de M.L. El sí de las niñas)

Dios guarde a VS (Vuestra señoría) muchos años.(Delgado S. El beso de la Duquesa)

Quede usted con Dios, señorita.(Vital A. La marquesita)

Hurmat tamoyillariga amal qilishning yana bir ommalashgan usullaridan biri so'zlovchi o'z nutqida xushomad kalimalarining talaffuz qilinishi bilan bog'liqdir. Xushomadning illokutiv maqsadi xushmuomalalik muhitini o'rnatish va saqlash, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashdan iborat bo'lib, suhbatdoshlarning ijobiy obrazini yaratishga mo'ljallangan. Xushomad nutqiy aktlarining birlamchi niyati hurmat tamoyillarini namoyish etish hamda suhbatdoshning ijobiy obrazini oshirishga qaratilgan, zero mazkur turdagi nutqiy tuzilmalar suhbatdoshning xulqini, uning hatti-harakatlarini ijobiy tarzda baholaydi.

Ispan muloqot madaniyatida xushomad nutqiy tuzilmalarini shakllantirishda undov olmoshlari vositasida boshlanadigan shakllar eng ko'p uchraydigan turkumdardan biridir. Ushbu vosita orqali so'zlovchi maqtov obyektining ijobiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi, ularga urg'u berib, ushbu holatdan zavqlanishini ifodalaydi. Undov olmoshlaridan keyin odatda obyektning muhim belgilarini ifodalaydigan sifat yoki ot turishi mumkin. Ushbu undovlarning boshqa variantini fe'l bilan birgalikda ishlatilgan cuánto, cómo olmoshlari tashkil qiladi. Buni qo'yidagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

¿Estos son vuestros hijos? ¡**Qué hermosos!** (Caballero F. La familia de Alvareda)

¡**Qué idea** tan luminosa! (Bermejo A.I. Brillantes Americanos)

¡**Cómo huele** usted a colonia! Ese olor sí que me gusta... (Galdós B. Doña Perfecta)

Keyingi guruh – komissiv nutqiy aktlarning illokutiv maqsadi adresat foydasiga amalga oshiriladigan adresant niyatini bildirishdan iborat. Komissiv nutqiy tuzilmalarning propozitsiyasi kelgusida bajarilishi lozim bo'lgan harakatga tegishli bo'lib, uning o'ziga xos kategoriyalari va'da va taklif hisoblanadi. Bunda adresant nutqiy muloqot doirasida suhbatdoshi bilan hamkorligini bildiradi hamda o'z saxiyiligini namoyish etish orqali ijobiy obrazini mustahkamlaydi. Shu sababli,

mazkur turdagi nutqiy aktlar ham mohiyatan xushmuomala strategiyalar safiga kiradi.

Suhbatdoshining ma'lum bir harakatni bajarishga qobiliyatini inobatga olgan holda voqelantiriladigan komissiv nutqiy aktlar **poder** fe'li vositasida tasdiq va inkor nutqiy tuzilmalari shaklida ifodalanadi. Qiyoslang:

*En cambio, Gabriel, yo **puedo** hacer por ti lo que no has soñado ni podrías soñar.* (Galdós B. Un faccioso más y algunos frailes menos)

*Oye, prosiguió la voz: yo **puedo** revelarte secretos que no ha penetrado la ciencia y sabrás en qué consiste la enfermedad que mata a tu hija. – Hazlo, contestó la madre con vehemencia.* (Licenciado V. El tutor y la pupila)

Shuningdek, querer, preferir fe'llarining so'roq nutqiy tuzilmalari doirasida ishlatilishi komissiv nutqiy tuzilmaning maqbulligini nazarda tutadi hamda H.Xaverkatening ta'biri bilan aytganda, so'zlovchi tomonidan va'da berilgan harakatni suhbatdosh amalga oshirmaslikdan ko'ra, bajarishni afzal ko'rishini ifodalaydi³⁰. Tahlilga tortilgan ispan muloqot matnlaridan ma'lum bo'ldiki, maqbullik suhbatdoshning ixtiyorini nomoyon etuvchi querer, preferir kabi fe'llarning so'roq nutqiy tuzilmasi orqali voqelanadi. So'roq adresatga nisbatan bildirilgan bo'lib, uning istaklariga va foydasiga bog'li ravishda faollashgan bo'lishi mumkin.

¿Quieres que vaya yo a la ciudad – cuchicheó la navarra – y le dé aviso al corregidor de lo que nos?(Alarcón P.A. El sombrero de tres picos)

¿Prefiere V. que lea unos apuntes que he tomado?(Pastor S.E. Sereno)

Komissiv nutqiy aktlarining bevosita *prometer* performativ fe'li orqali voqelanishi nutqiy tuzilmaning ilokutiv maqsadini tushunishni osonlashtiradi va so'zlovchi ma'lum harakatni bajarishga va'da berilayotganligini anglash hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

*Yo te **prometo** velar por ella.* (Montemar F.P. Nobleza republicana: drama en cuatro actos)

*Perfectamente; por mi parte le **prometo** a V. que desde mañana, mis amigas y yo, iremos al paseo a la una.*(Abuín y V.E. Jugar y perder)

Bundan tashqari, komissiv nutqiy aktlari performativ fe'llarni qo'llamasdan, va'da qilingan harakatni nomlovchi bosh gapdagi kesimning kelasi zamonda ifodalash orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Fe'l birinchi shaxs birlikda ishlatiladi, ya'ni, so'zlovchi harakatni keyinchalik amalga oshirish uchun mas'ul bo'ladi.

Si, señor, **trabajaré**. – Me conformo con esa promesa. (Zamora A. La cena de Baltasar)

Callaré como una muerta. (Galofre J. La gramática parda)

Ispan muloqot matnini tahlil qilish davomida, shuningdek, komissiv nutqiy aktlari ijrosida yana bir o'ziga xos lisoniy strategiyaning tez-tez ishlatilishini kuzatdik. Bu bevosita va eksplitsit ifodalangan buyruq mayli bo'lib, tinglovchining obraziga tahdid solish xavfi yuqori bo'lgan nutqiy harakat hisoblanadi. Boz ustiga, buyruq mayli, birinchi navbatda xushmuomala bo'lmagan nutqiy aktlar safiga kiradi. Biroq, mazkur kontekstda buyruq mayli vositasida faollashgan komissiv

³⁰ Haverkate H. La cortesía verbal. Estudio pragmatolingüístico. – Madrid: Gredos, 1994. – P. 107.

nutqiy aktlarda hech qaysi ijtimoiy me'yor buzilmasligi hamda uning hurmat tamoyillariga asoslanishi isbotlandi. Mazkur turdagi nutqiy tuzilmalar bilvosita nutqiy aktlar guruhiga mansub bo'lib, lokutiv aktning ma'nosi direktiv, ya'ni tinglovchini harakatga undayotgan buyruq ohangida bo'lsa ham, illokutiv kuch adresatining ma'lum bir harakatni bajarishi natijalari unga foyda keltiradigan taklif ekanligiga ishontirish hisoblanadi.

Escoja usted la que más le guste. (Alba G. Un Infierno, O, La Casa de Huéspedes)

Tome usía este vaso de agua azucarada. (Barrera P.M. ¡Triste chactas!)

Shunga o'xshash muloqot vaziyatlariga har kungi faoliyatimizda, masalan, mehmon va mezbon o'rtasidagi dasturxon atrofidagi suhbatda duch kelishimiz mumkin:

Oling, mehmon, shirinlikni tatib ko'ring!

Rahmat, qornim to'yib qoldi.

Kamroq bo'lsa ham yeb ko'ring, aynan sizga deb pishirganmiz. Oling, mehmon bo'ling!

Haqiqattan ham, ushbu muloqot matnida nutqiy tuzilma bo'yruq mayli orqali ifodalangan bo'lsa-da, mazmun tinglovchiga nisbatan hurmat, uni qadrlash illokutiv kuchiga ega. Shu bois ham, har bir nutqiy aktning tahlili jarayonida muloqotning ekstralingvistik omillarini hisobga olgan holda holda talqin qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tahlil doirasida direktiv nutqiy aktlarning eng ommalashgan lisoniy shakli sifatida so'roq nutqiy tuzilmasining poder modal fe'lini o'z ichiga olgan holatlarga tez-tez duch keldik. Ushbu muloqot vaziyatlarida ma'lum bir harakatni bajarish borasida so'zlovchining qobiliyati to'g'risida axborot talab qilinmaydi, balki buyruqning xushmuomala ifodalanishi, tinglovchiga undan talab etilayotgan harakatni bajarish yoki bajarmaslik to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish huquqi taqdim etiladi. Shunday qilib, so'roq nutqiy tuzilmalari orqali harakatga undash illokutiv kuchi faollashadi, ya'ni muloqot maqsadi bilvosita ifodalanadi. Quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

Señora, ¿puede usted explicarme lo que pasa? (Licenciado V. El tutor y la pupila)

¿Podrá usted evocarla y hacer que yo hable con ella? (Valera J. Asclepigenia)

Har ikki holatda ham hurmat tamoyillari so'roq nutqiy tuzilmalari vositasida bilvosita voqelantirilgan. Bilvosita so'roq nutqiy tuzilmalar tinglovchiga bosim o'tkazish modal mazmunini yumshatish maqsadida qo'llanilib, unga so'ralgan harakatni amalga oshirish qobiliyati haqida salbiy yoki ijobiy javobni berish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, tinglovchi uning harakat erkinligi xavf ostiga qo'yilganini sezmaydi, chunki mazkur strategiyalar asosida suhbatdoshi bilan hamkorlik qilish yoki qilmasligi to'g'risida qaror qilish uning istaklari bilan bog'langanligiga urg'u beriladi³¹.

³¹ 198. Orozco L. El empleo de perífrasis con el verbo poder en la realización de peticiones. En: Rodríguez Alfano, L. (ed.), La (des) cortesía y la imagen social en México. Estudios semiótico-discursivos desde varios enfoques analíticos. – Monterrey-Estocolmo: UANL-EDICE, 2009. – P. 112.

Ispan muloqot matnida hurmat tamoyillariga amal qilgan holda suhbatdoshni harakatga undash tayyor xushmuomala lisoniy iboralarni qo'llash orqali ham amalga oshiriladi, masalan:

¿Hace usted el favor de venir a tenerme la escalera? – En seguida, en seguida voy. (Escamilla P. Se suplica el coche)

Señora, ¿hará usted el favor de mandar que coloquen mi equipaje en la habitación que me destine usted?(Barrera P.M. ¡Triste chactas!)

Mazkur nutqiy tuzilmalarda xushmuomalalikning o'ta yuqori darajada ifodalanganligi kuzatiladi. Zamonaviy ispan jamiyatida bu kabi lisoniy strategiyalardan kamdan-kam holatlarda foydalaniladi hamda bilvosita voqelangan mazkur nutqiy aktlar hattoki muloqot muhitiga bog'li ravishda kinoya yoki kesatish kabi illokutiv mazmuni ham namoyon etishi mumkin.

Tened la bondad de decirme por donde saldré más pronto a la calle.(Olona L. Las diez de la noche)

Oye, Inés, haz el favor de ir a la cocina y ayuda a la pobre Nicolasa. – Enseguida, mamá. (Vital A. La marquesita)

Ispan muloqot matnida harakatga undashni yumshatishga mo'ljallangan yana bir asosiy lisoniy vosita ¿por qué no? hisoblanadi:

¿Por qué no le habla usted? Quizas conseguirá más que yo. (Licenciado V. El tutor y la pupila)

Pero ¿por qué no sirves antes a nuestro convidado?(Larra M.J. Rico de Amor)

Unda sabab bo'layotgan harakat so'zlovchi nuqtai nazarida adresat (yoki muloqot ishtirokchilarining har ikkisi uchun) uchun foydali hisoblanadi, ammo bajarilishi majburiy bo'lmaydi. Uning bajarilish/bajarilmasligi to'g'risida qaror chiqarish aynan tinglovchi zimmasiga tushadi. Ushbu o'rinda so'zlovchi o'zining hayotiy tajribasi yoki ma'lum vaziyatda qanday yo'l tutishni bilganligi bois muloqotda ustunroq o'rinni egallaydi.

Tadqiqot ishining **“Ispan muloqot madaniyatida hurmat tamoyillarini voqelantiruvchi etnopragsmatik omillar”** deb nomlangan uchinchi bobi nutqiy muloqot jarayonida ijtimoiy rol, kommunikantlarning ijtimoiy-iyerarxik zinapoyadagi o'rni, ular orasidagi yaqinlik darajasi va shuningdek, suhbat sharoiti, muloqot vaziyati kabi omillarning hurmat tamoyillarining faollashuvdagi ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan.

Muloqot matni nutqiy aktning ijtimoiy, pragmatik xususiyatlarining hamjihatligida namoyon bo'lib, illokutiv intensiyaning voqelanish tarziga eng muhim ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nutq subyektlarining muloqot vaziyatidagi roli ahamiyatli sanalib, turli tilshunos olimlar tomonidan ushbu masalaga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda va xilma-xil tavsiflanmoqda.

Olib borilgan tajriba-sinovlar paytida erishilgan natijalar tahlili bo'yicha xulosalar suhbatdoshlar o'rtasidagi turli xil ijtimoiy munosabatlar asosida shakllantirildi va ushbu munosabatlar nutq ishtirokchilarining lavozimi, muloqot doirasidagi o'rni va mavqeyi, yaqinlik darajasi va ular orasidagi ijtimoiy masofani hisobga olgan holda bayon etildi. Muloqot vaziyatining har bir turi ijtimoiy masofa asosida lisoniy voqelantirilganligini inobatga olgan holda, olingan

natijalarni izohlash uchun biz suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarni ularning ijtimoiy turiga binoan uchta katta guruhga ajratishni lozim topdik (= teng ijtimoiy maqom; > yuqori ijtimoiy maqom):

- 1) simmetrik turdagi gorizontal munosabatlar (so'zlovchi= tinglovchi);
- 2) asimmetrik turdagi vertikal munosabatlar (so'zlovchi> tinglovchi);
- 3) asimmetrik turdagi vertikal munosabatlar (tinglovchi> so'zlovchi).

Olib borilgan tajriba-sinov tadqiqida Ispaniyaning Kastiliya La-Mancha, Kadiz hamda Alikante Universitetlarida tahsil oluvchi yoki faoliyat ko'rsatayotgan 100 nafar ispan til sohiblari ishtirok etishdi. Ularning yoshi 18 dan 70 yoshgacha bo'lib, 33 tasi ayol, 67 tasi erkak jinsiga mansubdir.

Savolnomalarda respondentlarga turli xil ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan bir-biridan farq qiluvchi muloqot vaziyatlari taqdim etildi va ulardan ushbu holatlarda o'z kommunikativ intensiyalarini qanday voqelantirishni lozim ko'rishlariga qarab, berilgan javoblardan birini tanlashi so'raldi. Javoblar salbiy va ijobiy hurmat tamoyillariga amal qilgan holda, shuningdek, tinglovchining obraziga xavf soluvchi nutqiy tuzilmalar orqali voqelangan variantlar sifatida taqdim etildi. Turli jins vakillari bo'lmish ispan madaniyati sohiblari tomonidan muloqot matni va vaziyatiga qarab hurmat tamoyillarining voqelantirish usullariga tadqiqot ishimizda alohida e'tibor qaratilgan.

Nutqda yumshatuvchi so'z va iboralar talaffuz etilgan nutqiy tuzilmaning haqqoniyligiga shubha bildirish, tinglovchi fikriga hurmat-ehtirom bilan qarash yoinki uning nuqtai nazariga ijobiy yondashuvni namoyon etish maqsadida qo'llaniladi.

Yumshatuvchi so'z va iboralar turli jinsga mansub bo'lgan ispan til sohiblari nutqida yetarli darajada ko'p uchraydi. Ular qatoriga yordamchi modal fe'llar ("puede", "podría", "debe"), modal so'zlar ("posiblemente", "quizás", "probablemente"), ishonch, hamfikrlilik, gumonni bildiruvchi performativ fe'llar ("sugerir", "creer", "asumir", "argumentar"), leksik cheklovchilar ("aproximadamente", "más o menos", "bastante", "sobre"), turg'un birikmalar ("a veces", "a menudo", "rara vez"), que bog'lovchili ergash gaplar ("podría ser el caso que ...", "es sin duda el caso de que...", "hay toda esperanza de que...", "parece que....») kiradi.

Zamonaviy badiiy asarlar tahlili shundan dalolat beradiki, hurmat tamoyillarini ifodalovchi bu kabi ko'rsatkichlarning ayollar yoki erkaklar tomonidan ishlatilishida ahamiyatli farqlar mavjud emas. Erkaklar nutqida modal fe'llar ishlatilishining foizi taxminan 51,16% ni tashkil etsa, ayollarda ushbu ko'rsatkich 43,3% ni, modal so'zlarga to'xtaladigan bo'lsak, erkaklar nutqida ular ma'lum darajada ko'proq uchrashiga amin bo'ldik (60,7%). Mazkur harakatlarni erkaklar o'zganing hissiyotlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik, talaffuz etilgan nutqiy tuzilma qat'iyligini yumshatish va nutqiy aktlarni bevosita voqelantirganda bajarilishi gumon ostida bo'lgan kommunikativ maqsadning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlash maqsadida amalga oshiradilar.

"Me gustaría hablar sobre el accidente", dijo Antonio.

"Puedes preguntar. Puede que no responda."

"¿Qué causó la explosión?"

"No lo sé. Quizás un compresor de aire. Quizás algo de combustible. No estamos seguros ...". (Licenciado V. El tutor y la pupila)

Ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, erkak so‘zlovchi aniq xulosalarni bayon etishdan o‘zini tortmoqda, u o‘zi talaffuz etgan nutqiy tuzilmaning haqqoniyligiga ishonchi komil emas va shuning uchun nutqiy aktning qat‘iylik ohangini "quizás" so‘zi bilan yumshatmoqda.

Nuestro camarero nos estaba observando de cerca. Y cuando me levanté, en mis caderas, y expresé con mi postura total desconcierto y negativa a buscar más, él se acercó y con un fuerte y agradable acento georgiano preguntó:

-Le pido perdón, probablemente olvidó el número en el baño. Fue enviado al armario. ¡No te preocupes por favor!

Yo estaba muy enojado. Vio cómo estábamos buscando algo durante cinco minutos. ¡¿No pudiste venir antes y decir?! ...

Volvimos a sentarnos a terminar nuestro café y nos trajeron la cuenta. (Licenciado V. El tutor y la pupila)

Mazkur misolda esa ofitsiant raqamli belgicha aynan kim tomonidan yuqotilganligaga shubha qiladi va shu sababli xato qilgan taqdirda ham o‘zi murojaat etayotgan shaxsning obraziga tahdidning oldini olish maqsadida “probablemente” so‘zini ishlatishni lozim topadi.

Erkak va ayollar nutqida modal so‘z va fe‘llarning ishlatilishi yagona maqsad uchun xizmat qiladi – nutqiy aktning tinglovchi obraziga tahdid solishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Ispan muloqot madaniyatida ayol va erkaklar tomonidan hurmat tamoyillariga asoslanish yo‘lida bajariladigan yana bir nutqiy harakat sifatida “sabemos que” va “es que” kabi lisoniy vositalardan foydalanilishini keltirsak, xato bo‘lmaydi.

Aniqlik modal mazmuni ko‘rsatkichi bo‘lgan “sabemos que”ning (asosan suhbatdoshlar bir biri bilan yaxshi tanish bo‘lgan hollarda) ishlatilishi adresatga “ijobiy” hurmat nuqtai nazaridan yondashishga qaratilgan nutqiy harakat sifatida talqin etiladi yoinki nazarda tutilgan ma‘lumotning hammaga ma‘lumligiga ishora qilish belgisi sifatida qaraladi.

Umuman olganda, modal mazmunidagi aniqlik ko‘rsatkichi gapirish navbatini birovga bermaslik, so‘zlovchining fikriga qo‘shilish yoki xabar berilayotgan ma‘lumotning qat‘iyiligini yumshatish maqsadida erkaklarga nisbatan ko‘proq ayollar (ushbu ko‘rsatkich qatnashgan barcha nutqiy tuzilmalarning umumiy qiymatidan 64%) nutqida faollashadi.

Vivian y Alec compartieron la suite principal durante dos semanas, hasta que una mañana Vivian dijo: "Te amo, Alec, pero sabemos que roncas" Alec no lo sabía. "Realmente debo dormir solo, amor. No te importa, ¿verdad?"

"Por supuesto que lo entiendo, cariño". (Licenciado V. El tutor y la pupila)

Ushbu parchada Vivian “sabemos que” tuzilmasidan o‘zining sevgilisiga qaratilgan qat‘iy e‘tirozini yumshatish maqsadida foydalanadi.

Erkaklar esa hurmat tamoyillarini ta‘minlovchi “sabemos que” iborasidan yetkazilgan axborotning har ikkala suhbatdoshga ma‘lumligiga ishora qilish, maslahat, iltimos yoki tinglovchining obraziga tahdid solish xavfi bo‘lgan boshqa nutqiy aktlar qat‘iyiligi mazmunini pasaytirish maqsadida foydalanishiga guvoh bo‘ldik.

"Juan solicitó el divorcio, ya sabes".

"Lo escuché (Mitch). Eso no es sorpresa, ¿verdad?"

"Sorprendido que no lo hizo el año pasado ...".

Lester sintió una agradable agitación en la ingle. "Creo que la gente tiene que ser amable con la gente, ¿no es así, Lureen?"

"Tienes tanta razón, Lester."

"Sabes, deberías abrir tu propia cuenta aquí. Te cuidaría muy bien. Muy bien".

"Solo sé que lo harías", dijo Tracy en voz baja.

"¿Por qué no lo hablamos tú y yo durante una agradable cena tranquila en algún lugar?"

"Seguramente me encantaría". (Galdós B. Doña Perfecta)

Everining nutqida *¿sabes?* birligi tinglovchining ushbu axborotdan xabardorligi va bu borada so‘zlovchi uning fikrini bilish istagi borligini ifodalash ilokutiv maqsadini voqelantirish maqsadida ishlatilgan.

Misolda *«usted sabe»* nutqiy tuzilmasi bank boshqaruvchisining mijoziga qaratib aytilgan ko‘rsatmasining kategorialligini yumshatish maqsadida talaffuz etilgan.

Conrad Morgan juntó las manos y Tracy se dio cuenta de lo hermosamente cuidadas que estaban.

Pobre Betty. Una dama tan encantadora. Tuvo mala suerte, ¿sabes?

"¿Desafortunado?"

"Sí. La atraparon."

"Yo... no entiendo".(Montemar F.P. Nobleza republicana: drama en cuatro actos)

Mazkur parchada erkak so‘zlovchi *¿sabes?* iborasiga murojaat qilib, asar qahramoniga nima bo‘lganligini to‘g‘risidagi umumiy fon bilimlar mavjudligiga ishora etmoqda.

Muloqot matnida "más o menos" iborasi ko‘p hollarda norasmiy diskursda voqelanib, hamfikrlilikni ham bildirib kelishi mumkin. X.Xaverkate qayd etishicha, ayollar "más o menos" iborasini erkaklarga nisbatan ko‘proq qo‘llaydilar. Ammo biz tahlil etgan badiiy asar namunalarida teskari holatlarni kuzatdik. Erkaklar o‘z harakatlarini oqlash yoinki talaffuz etilgan nutqiy tuzilmalarining haqqoniylikiga shubhani ifodalash maqsadida ayollarga nisbatan ko‘proq "más o menos" iborasini qo‘llaydilar. Umuman olganda, mazkur iboraning erkaklar nutqida qo‘llanilishi 77% ni takil etsa, ayollarda ushbu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 22%dan iborat.

¿Trabajas mañana?'

"Yo (Mitch) no lo había planeado. De hecho, mi esposa más o menos ha insistido en que vayamos a la iglesia."

*Avery agitó la cabeza. Las esposas pueden estorbar, ¿no?"*Dijo esto sin esperar una respuesta. (Galdós B. Doña Perfecta)

Ayollar más o menos markeridan ishonchsizlikni ifodalash uchun emas, balki talaffuz etilgan nutqiy tuzilmaning qat‘iyligini yumshatish maqsadida foydalanadilar. X.Xaverkate qayd etishicha, ayollar "más o menos" iborasini erkaklarga nisbatan ko‘proq qo‘llaydilar. Ammo biz tahlil etgan badiiy asar

namunalarida teskari holatlarni kuzatdik. Erkaklar o'z harakatlarini oqlash yoinki talaffuz etilgan nutqiy tuzilmalarining haqqoniylik shubhani ifodalash maqsadida ayollarga nisbatan ko'proq "más o menos" iborasini qo'llaydilar. Umuman olganda, mazkur iboraning erkaklar nutqida qo'llanilishi 77% ni takil etsa, ayollarda ushbu ko'rsatkich bor-yo'g'i 22%dan iborat.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **"Ispan lisoniy madaniyatida hurmat tamoyillari ifodalanishining milliy-madaniy xususiyatlari"** deb nomlangan bo'lib, o'tkazilgan tajriba-sinov orqali olingan natijalar tahlil etilgan. Ma'lumki, til va nutqga bog'li har qanday hodisa muayyan milliy-madaniy xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ular "madaniy makonning bir qator xususiyatlarida, milliy hodisalar tizimida, milliy urf-odatlarida, ongning freym tuzilmalarida va tilning sirtqi qatlamida - muloqot jarayonida milliy til va madaniy jamoalar vakillari orasida tug'ilgan tushuncha va andozalarda" aks topgan bo'ladi³².

Umuman, hurmat tamoyillari va xushmuomalalik umuminsoniy qadriyat bo'lishiga qaramay, har bir millat bir-biriga muloyim muomala qilishning o'ziga xos milliy qoidalar tizimini ishlab chiqadi. Shu bois, xalqning milliy qadriyatlari va urf-odatlarining o'ziga xos jihatlari tilning milliy xususiyatlarida aks topadi. Boshqa millat hayotini, kundalik turmushini kuzatar ekanmiz, birinchi navbatda, ushbu jamiyatda qabul qilingan odob-axloq qoidalarini o'zimizdan farq qiluvchi dolzarb xususiyalariga ahamiyat qaratamiz.

Ispan muloqot madaniyatida hurmat tamoyillarining milliy-madaniy o'ziga xosligi masalasini tadqiq etishda mazkur til sohiblari "cortesía" (xushmuomalalik) tushunchasi ortida nimani tasavvur etishini aniqlash muhimdir. Ushbu masalaga oydinlik kiritish maqsadida anonim tarzda tajriba-sinov o'tkazishni lozim topdik. So'zlovchi uchun yetarlicha murakkab tuyulishi mumkin bo'lgan "Hurmat tamoyillari deganda nimani tushunasiz?" savoli osonlashtirish niyatida, "Qanday insonni xushmuomala deb atasak bo'ladi?", deb so'rashga qaror qildik. Ushbu savolga javob topish orqali, ispanlar umuman olganda xushmuomalalik to'g'risida qanday fikrda ekanligini bilib olish imkoniyati tug'ildi.

O'tkazilgan tajriba sinov jarayoniga 18 yoshdan 61 yoshgacha bo'lgan 200ta respondent qatnashdi. Ispan til sohiblarining yosh va gender xususiyatlarini inobatga olgan holda guruhlarga bo'ldik.

Savolnomaga javoblar tahlili ko'rsatishicha, 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan ispan ayol respondentlarning fikriga ko'ra, xushmuomala inson quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak: muloyim / cortés (35%) , mehribon / amigable (27%), doimo yordam qo'lini cho'zishga tayyor / listo para venir al rescate (19%), og'ir-bosiq / reservado (17%), e'tiborli / atento (16%), xushmuomala / considerado (14%), xush xulq egasi / tiene buenos modales (12.7%), hurmatli / respetuoso (11%), yoqimli / agradable (9,5%), nutq odobiga rioya etadigan / utiliza unidades de etiqueta (8%).

Kamdan-kam holatlarda xushmuomala insonning kamtarin / modesta, xotirjam/tranquila, dilkash / sociable, ehtiyotkor/cautelosa kabi xususiyatlari respondentlar tomonidan tilga olindi. Xushmuomala inson deb, sherigining his-tuyg'ulariga befarq bo'lmagan, uning shaxsiyatiga bo'lgan qiziqishni namoyon

³² Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С. 154.

etadigan, his-tuyg'ularini ochiq ifodalaydigan, boshqalar bilan bir jamiyatda yashashini anglagan holda, suhbatdoshining madaniy me'yorlari bilan tanish va ularga amal qiladigan, odamlarga o'ziga qanday muomalani ravo ko'radigan bo'lsa, shunday munosabatda bo'ladigan bag'rikeng, ochiq chehrali shaxsni ta'riflash mumkin.

Quyidagi fikrlar ham qiziqarli: El hombre educado — británico/ "Ingliz millati vakillari – xushmuomala" (talaba, 22 yosh); El hombre educado es un fenómeno que rara vez se encuentra/ "Xushmuomala inson o'ta kamyob xislat" (talaba, 19 yosh); Hombre educado hoy en día no se puede encontrar a menudo/ "Bugungi kunda xushmuomala insonni doim ham uchratavermaymiz" (talaba, 20 yosh). Ushbu javoblardan ko'rinib turibdiki, ba'zi ispanlar xushmuomala deganda o'zga millat vakillarini ko'z oldiga keltiradilar, masalan, bizni holatda, inglizlarni. Darhaqiqat, Buyuk Britaniyada tadqiqot ishimiz bo'yicha stajirovka o'taganimda, inglizlarni nihoyatda xushmuomala va sertakalluf ekanligiga shaxsan o'zim amin bo'ldim. Chunonchi, kun davomida "Sorry", "Thank you", "Please" kabi xushmuomala nutqiy tuzilmalarni takror va takror qo'llaniliga guvoh bo'ldik.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, javoblarning aksariyat qismida xushmuomala inson tushunchasining ko'p o'lchovli tavsiflari ham uchradi. Qiyoslang: Una persona educada es alguien que es atento y servicial con otras personas en su vida diaria y mantiene la etiqueta adecuada/ "Xushmuomala inson kundalik turmushda boshqalarga nisbatan e'tiborli va yordamini ayamaydi, shuningdek, qabul qilingan odob-axloq me'yorlariga amal qiladi" (talaba, 24 yosh); Una persona educada es alguien que es amable, servicial y agradable, que escucha y no interrumpe. Alguien con buenos modales y comportamientos / "Xushmuomala inson bu doim ko'mak berishga shoshadigan, mehribon, birovni gapini bo'lmaydigan yoqimli shaxsdir. U yaxshi tarbiya ko'rgan, xush xulq egasi" (ishlab chiqarish bo'lim boshlig'i, 33 yosh); Es una persona educada que ayuda a otras personas, muestra sentimientos, es considerado y cortés / "O'zgalarga yordam beradigan, his-tuyg'ularini yashirmaydigan, muloyim inson xushmuomalaladir" (mehmonxona xodimi, 23 yosh); Una persona educada es cortés, amigable y sabe cómo comportarse en ciertas situaciones, incluso si no siempre es fácil para él / "Xushmuomala inson har qanday holatda, qiyin bo'lsa-da, o'z hissiyotlarini jilovlay oladigan, uzoqni ko'ra biladigan mehribon shaxs sifatida namoyon bo'ladi" (o'qituvchi, 27 yosh).

Misollardan ko'rinib turibdiki, yosh qizlarning xushmuomala insonlar to'g'risidagi taassurotlari, avvalambor, g'amxo'r, mehribon, e'tiborli, yordam berishga tayyor, o'z fikrini ehtiyotkorlik bilan ifodalaydigan, muloyim shaxslar bilan bog'liq.

Xushmuomala insonlar to'g'risida yigitlarning tasavvurlari quyidagi holatlarda qarama-qarshi jins vakillari bilan to'g'ri keldi: foydali (39%), samimiy (28%), mehribon (25%) va hurmatli (21%). Ular tomonidan yetarli ahamiyat qaratilmagan xususiyatlar qatoriga yoqimli (11%), e'tiborli (7%), xushmuomala (4%), bo'ysinuvchan (3%) va xulq odobiga amal qiluvchi, ochiq chehrali.(3.6%) kabilarni kiritish mumkin. Kamdan-kam holatlarda xushmuomala insonning quyidagi xususiyatlari tilga olindi: birovni xafa qilmaydigan kishi / el que no

ofende, ishonchli / confía en, halol / honesto, og‘ir-bosiq tranquilo, minnatdor / agradecido.

Olingan javoblar tahlili natijasida, shuningdek, guvoh bo‘lish mumkinki, xushmuomala inson sifatida muayyan shaxs yoki ma‘lum kasb-hunar, ijtimoiy maqom bilan bog‘liq insonlar ham ko‘rsatilgan: Una persona educada es mi antigua maestra de francés e historia/ “Fransuz va tarix fanlari bo‘yicha maktab o‘qituvchilarimni xushmuomala deb hisoblayman” (ofisiant, 28 yoshda); / una persona educada es un mayor domo, un caballero / “Xushmuomala shaxs – saroy ahli, djentelmen” (talaba, 26 yoshda).

Katta yoshdagi respondentlar (31-61 yoshda) umuman olganda, yoshlar bilan bir xil natijalarni qayd etdilar. Shunday qilib, ikkinchi guruh ayollarining yarmidan ko‘pining fikricha, xushmuomala inson, samimiy (21%), jamiyat uchun foydali (21%), muloyim (19%), xush xulq egasi(19%), boshqalarga yordam berishga tayyor (12,8%) kabi xususiyatlar sohibidir.

Kam holatlar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: ochiq / abierto, samimiy / cordial, do‘stona / sociable, samimiy / sincero, punktual / puntual, bag‘rikeng / tolerant. Xushmuomala inson suhbatdoshi bilan uyg‘un munosabatlarni yaratish imkoniyatlarini izlaydi. Shu bilan birgalikda, xushmuomala kishi nutqiy muloqot jarayonida suhbatdoshining o‘zini noqulay his etmasligini ta‘minlashga intiladi.

Ba‘zi javoblarda xushmuomala sifatida suhbatdoshining shaxsiy maydonini hurmat qiladigan hamda uning ijobiy obrazini saqlashga intiladigan inson timsoli keltirilgan: Una persona educada es una persona que es considerada con las necesidades faciales de otras personas .../Xushmuomala kishi – suhbatdoshining ijobiy obrazini hurmat qiladigan insondir (tadqiqotchi, 33 yoshda); Una persona educada es distante y discreta/xushmuomala inson shaxsiy masofani saqlaydi va suhbatni tinglovchining xohishsiz olib bormaydi (o‘qituvchi, 60 yoshda); Una persona educada es alguien que respeta los límites del otro y puede mantener una distancia / o‘zgalarning suhbat bobidagi shaxsiy chegaralarini hurmat qiladigan va ijtimoiy masofani saqlaydigan kishi (rassom, 48 yoshda); una persona educada es alguien, quién puede regular sus necesidades en el trato con los demás de tal manera que haya un equilibrio entre la necesidad y la satisfacción de las necesidades entre los socios de comunicación /Xushmuomala inson shukim, nutqiy muloqot davomida hamsuhbatining suhbatdan kutilgan xohishini u bilan uyg‘unlikda suhbat olib borish orqali qondiradi (ilmiy xodim, 41yosh).

Shuni ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, katta yoshdagi respondentlar (31dan 61 yoshgacha) xushmuomala insonni tavsiflashda keng tarqalgan xususiyat sifatida hurmat, ehtiromni/ respeto belgiladilar (30%). Bizning nazdimizda, “hurmat” tushunchasi xushmuomalalikning sinonimi bo‘lgan holda, xushmuomala insonga tegishli barcha xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi: e‘tibor, mehribonlik, ko‘maklashish, xushmuomala tuzilmalardan foydalanish, ijtimoiy masofani saqlash va hokazo.

Eng yuqori avlod vakillarining erkak jinsiga mansub respondentlari xushmuomala inson sifatida, avvalambor, iltifotli (32%), hurmatli (19%), andishali (19%) va e‘tiborli (11%) kishilarni ta‘riflashdi. Ularning nazdida, boshqa xususiyatlar ikkinchi darajali hisoblanadi. Jumladan, yoqimtoy (8%), og‘ir, bosiq

(8%), xush xulqqa ega (8%), yordam berishga tayyor (5%), xushmuomala tuzilmalardan foydalanadigan (5%) kabilar shular jumlasidandir.

Ayrim hollarda quyidagi xususiyatlar ko'rsatildi: halol (honesto), oqko'ngil (bondadoso), odil (tolerant), xush tarbiyali (bien educado). Shuningdek, g'ayrioddiy javoblar ham uchradi: Una persona educada es una persona que intenta decir algo malo de una forma agradable/ xushmuomala inson – noxush gapni ham qog'ozga o'rab aytadi (ilmiy izlanuvchi 31%); Una persona educada es alguien con quien necesitas estar menos molesto/ Arazlash ehtimoli kam bo'lgan kishi xushmuomaladir (xodim, 47 yosh).

